

Saidnosir Mirjalilov (1884-1937)



Saidnosir Mirjalilov (1884-1937)



Atoqli ma'rifatparvar, Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalaridan biri Saidnosir Mirjalilov 1884 yili Turkiston shahrida tavallud topgan. Yoshligidan o'ta ziyrak, tadbirkor va mehnatkash bo'lgan Saidnosir tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do'konini ochishdan boshlagan. Ko'p o'tmay u Turkistonda birinchi jadid maktabini tashkil etgan. 1914 yilda paxta zavodini qurib, Turkistonning taniqli boylari va savdogarlaridan biri sifatida shuhrat qozongan.

S.Mirjalilov 1917 yil siyosiy faoliyatga o'tadi. Fevral inqilobidan so'ng u Toshkentda tashkil etilgan «Sho'royi islomiya» tashkilotining faol a'zolaridan biriga aylandi. Turkiston mustaqillikka erishishini orzu qilgan Saidnosir Mirjalilov tijoratchi sifatida topgan sarmoyasining katta qismini milliy ittihad va istiqol uchun olib borilgan kurashga bag'ishladi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etdi va hukumat a'zosi etib saylandi. Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarlari ta'qib ostiga olingach, S. Mirjalilov xorijga ketishga majbur bo'ldi va dastlab Samaraga borib, Turkistonda ro'y berayotgan xunrezliklarga chek qo'yish yo'llarini axtardi, so'ng Turkiya va Tiflida bir muddat yashadi.

Bolsheviklar e'lon qilgan umumiy afvga ishonib, u 1921-yili vataniga qaytdi. U «Turkiston» savdo-sanoat shirkatini tashkil qilib, undan tushgan foyda evaziga «Ko'mak» jamiyati orqali iste'dodli yoshlarni Germaniya va boshqa mamlakatlarga o'qishga yuborish, «Nashri maorif» jamiyati faoliyatini avj oldirish ishiga o'z ulushini qo'shdi. Lekin bolsheviklar kuzatuvidan ozod bo'lmagan S.Mirjalilov 1925 yil 12 dekabr kuni hibsga olinib, Solovetsk orollariga qamoqqa yuborildi. U uch yillik qamoq muddatini o'taganidan keyin 1932 yili yana besh yil muddatga qamaladi, nihoyat 1937 yil 21 iyul kuni takror hibsga olinib, o'sha yilning 25 oktyabrida otib tashlandi.

Saidnosir Mirjalilov qabrining qayerdaligi noma'lum.

U 3arifa Saidnosirovaning otasidir.

2023-09-10 17:44:10